

This is not registered version of TotalDocConverter!

Shuniyam suradi enasi. Achchig'i chiqdimi birdan qovog'i solinadi, sochlari kirpitikonning ignalaridek tikkayadi, ko'zlaridan uchqun chaqnab, jajji lablari giloschaga o'xshab cho'chchayadi. "Ha, nima bo'ldi?" desangiz, toshdek qotib, indamay turaveradi.

Boshqa paytlarda undan xushchaqchaq, undan shirin qiz yo'q. Bir so'zamolligi qo'zisa, uydagilarni gapga tutib charchatadi. O'zgalardan ko'ra enasining qo'li bo'shroq, shu bois ko'proq unga mahmadanachilik qiladi:

Ena! Bir topishmoq aytsam, topasizmi?

Topishmoqni To'maris opangga aytib tur, men choyimni ichib olay, deya oldidagi issiq choynakni qaqlidoq nevarasidan nariroqqa suradi enasi. Burushta menga yopishasan-a, bolam.

Enasining yana bir g'alati gapini ilib olgan O'g'iloy: "Iy! "Burushta" degani nima?" deb kampirga battardan suykanadi.

"Burushta" degani "doim", "hadeb" degani-da, choy ho'playotib tushuntiradi enasi.- Shuniyam bilmaysanmi, jaqqi?

Iy! "Jaqqi" nima? deya tag'in gapni kavlaydi O'g'iloy.

Enasi burushqoq qo'lida nevarasining sochini to'zg'ilatib erkalatadi:

Sendaqangi tinmay gapiradiganlarni "jaqqi" deyishadi. Uqdingmi?

Uydagilar-ku uydagilar, hatto mehmonga kelgan odam ham O'g'iloyning qopqoniga bir tushdimi, osonlikcha qutulolmaydi.

Mehmonni o'ziga sal eliktirib olsa bas, "Bitta topishmog'im bor. Aytam, maylimi?" deya xishava qilaveradi. Mehmon: "Qani, eshitaylik-chi", deb qo'ysa tamom, topishmoq deganni yog'dirib tashlaydi.

O'zi zindonda, dumi osmonda. Nima?

Sholg'om! deydi mehmon.

Topishmoqning javobi tezdayoq topilganidan jahllangan O'g'iloy peshanasini tirishtiradi. Tumtayib turib, ikkinchi topishmoqni aytadi:

Kichkina mehmon nafsi yomon. Nima?

Mehmonning: "Menimcha-a, bu pashsha bo'lsa kerak", deganini eshitib, ko'ngli yana g'ashlanadi. Endi uchinchi topishmoqqa gal keladi:

Akasi achchiq, ukasi sassiq. Nima?

Mehmon bu safar o'ylanganicha turib qoladi. Uning o'ylanishi qancha uzoqqa cho'zilsa, O'g'iloyning bahri-dili shuncha ochilib boraveradi. Birpas o'tib: "Iy! Topolmadingizmi? Topolmasangiz, shahar bering. Qaysi shaharni berasiz?" deb qiqirlaydi.

Mehmon: "Ha, bo'pti, Marg'ilonni berdim", degach, yayrab jaqillashga tushadi:

Siz ketaverdingiz, ketaverdingiz, yo'lida chuqur uchrab "shalop" etib balchiqqa yiqildingiz. Men ketaverdim, ketaverdim, yo'lida chuqur uchrab, "jarang" etib oltinlarga yiqildim. O'sha oltinlarga Marg'ilonni sotib oldim. Marg'ilonning taxtida o'tirib, "Akasi achchiq, ukasi sassiq" nimaligini aytsam, u piyoz bilan sarimsoqpiyoz. Xi-xi-xi, xi-xi-xi.

O'g'iloya qo'shilib mehmon, mehmonga qo'shilib boshqalar ham kulishadi. Bundan O'g'iloyning yanayam chuchchasi ko'tarilib, mehmonning chap biqinidan o'ng biqiniga o'tib ishqalanadi:

Odamlar to'g'risidayam ancha topishmoq bilaman. Aytam maylimi?

So'raydi-yu, mehmonning roziliginini kutib o'tirmsandan, darrov ishga kirishadi. Nozima degan qarindoshlari bor, ukasiga sira kun bermaydi. Uning bo'limgur qiliqlaridan birini ko'z oldiga keltirib: "Ukasining so'rg'ichini so'rib qo'yadi. Kim?" deb so'raydi.

Mehmon javob topolmagani sayin ichi tobora yorishib, topishmoqlarni ustma-ust taxlayveradi:

Dadasi pul bermasa, maktabga bormaydi. Kim?

Bog'chada uxmlamay, ko'rpsidan mo'ralab yotadi. Kim?

Emaklab borib, kallasini xontaxtaga urvoladi. Kim?

Bularning birinchisi katta amakisining o'g'li Abdulaziz, ikkinchisi Tohir tog'asining nevarasi Farida, uchinchisi kichik amakisining o'g'li Furqat ekanini bilib turgan O'g'iloy shunday oson topishmoqlarni topolmay qiynalayotgan mehmonga hayronlanib qaraydi.

Narsalar to'g'risidagi topishmoqlarni O'g'iloya ko'pincha dadasi o'rgatadi. Lekin, tevarakdagi tanish odamlar haqidagilarni, xoh ishoning, xoh ishonmang, O'g'iloy o'zi to'qib tashlayveradi. Qarang-a, odam o'yinqaroqlikka berilmay, aqlini jo'yali ishlatishga astoydil qunt qilsa, hatto bog'cha yoshidayam zo'r-zo'r narsalarni o'ylab topishi mumkin ekan.

Ba'zi bolalar bor biri televizorning oldiga yonboshlavolib, oldi-qochdi ko'rsatuvlariyam tomosha qilaveradi, biri bog'cha opasi o'rgatgan harflarni yozib mashq qilish o'rniiga, ko'chadan beri kelmaydi, yana biri oyisi rangqalam olib bergen bo'lsa-da, "O'zing bo'ya" kitobidagi tayyor rasmlarni bo'yashga erinadi. O'g'iloya kelsak, u tugalay boshqacha qiziquvchan, izlanuvchan, g'ayratli. Bunaqa esi ko'p bolaga qoyil qolish kerak.

Yo... O'g'iloyni ortiqcha maqtab yubordimmikin? Balki, qaysidir mahallalarda undan ham tirishqoqroq, undan ham topqirroq bolalar bordir-u, men bilmay yurgandirman. Agar shunaqlalar bor bo'lsa, ertami-kech ular ham kimlardandir albatta maqtov eshitishadi. Nima bo'lidayam, maqtovga arzigelik ishlar qachonlardir munosib bahosini olmasdan qolmasligiga qattiq ishonib yashagan yaxshi.

2006